



**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI  
XALQ TAʼLIMI VAZIRLIGI  
ЎЗБЕКИСТОН GEOGRAFIYA JAMIYATI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“GEOGRAFIYANING MINTAQAVIY  
MUAMMOLARI”**

**RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**



**JIZZAX 2017**

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anonim G., Nabixonov M., Safarov I. "O'zbekiston iqt. va ijt. geografiyasi". T. O'qituvchi, O'zbekiston ME. 3-tom Toshkent 2002 y. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" nashriyoti  
2. Safarov A., Nazarov A., Qurbonov SH. "O'zbekiston hududlarining iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishi" Toshkent, "Mumtoz so'z" n. 2011 yil.

Usmonov M.R., Ubaydullayev D.K., Qurbonov LA.  
Jizzax davlat pedagogika instituti

## JIZZAX VILOYATIDA SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'zbekiston Respublikasi ichki suvlarini 18 mingga yaqin daryo, daryocha va soylar tashkil etadi. Ularning o'n mingtasi Amudaryo havzasida, besh mingtasi Sirdaryo havzasida, qolganlari esa tog'li hududlarda hosil bo'lgan katta-kichik soy va jilg'alardan iborat. Jizzax viloyati mamlakat hududida 525 ta ko'l va ko'lhalar hamda 53 ta suv omborlari mavjud. Bu suv havzalari mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga yiliga 57,478 km<sup>3</sup> suv bilan ta'minlash kelmoqda.

Tabiatning yaxlit tizimining ajralmas qismi bo'lgan suv resurslarining ifloslanishi, sarflanishi, bulg'anishi, hattoki zaharlanishi va miqdorining kamayib ketishi bu tizimning salbiy jarayonlarni yuzaga kelishining biologik muvozanatni hamda undagi modda va energiya almashinuvining buzilishini, o'simlik va hayvonot dunyosiga va shu jumladan, inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini yuzaga keltiradi. Shunday holatning yuzaga kelishining oldini olish ekotizimdagi optimal tabiiy sharoitning buzilishiga yo'l qo'ymaydi hamda tabiatning evolyutsion rivojlanishini ta'minlaydi.

Suvni tabiatdagi, ya'ni ekologik tizimdagi o'rni va ahamiyati nihoyatda muhim bo'lib, suvni Oparinning nazariyasi bo'yicha, Yerda hayotning paydo bo'lishi va uning rivojlanishi tashkil etadi. Suv tabiatda modda va energiya almashinuvida, ayniqsa, o'simlik rivojlanishining qayta tiklanishida muhim ahamiyatga ega.

Bu qanday ilmiy tadqiqot o'zining aktualligi bilan boshqa tadqiqotlardan ajralib turadi. Tadqiqot ishlarini olib borayotgan ob'ektlar Jizzax viloyati hududida joylashgan bo'lib, o'z muammasini bajarishda bir qator yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Mavzuning muhimligi shundan iboratki, hududimizda yog'ingarchilik ko'rsatgichi -  $x_0$ , bug'lanish ko'rsatkichidan - E dan bir necha (3-4) marta kichik. Shuning hisobidan hududimizda doimo suv bilan ta'minlash zarurati mavjud va sug'orish normalariga talab yuqori. Biz suv bilan ta'minlash ob'ektlarida suv resurslarini olib borib, quyidagi ma'lumotlarni ilmiy tahlil qilib chiqdik va o'z muammasini kiritdik.

(1-jadval)

Viloyat asosiy daryolari haqida ma'lumot

№	Daryo nomi	Uzunligi (km)	Boshlangan joyi
1	Sangzor	123	Turkiston tizmasi
2	Zeminsuv	41	Turkiston tizmasi
3	Ravotsoy	39	Molguzar tizmasi
4	No'jamushkentsoy	36	Molguzar tizmasi
5	Sayxonsoy	31	Molguzar tizmasi
6	Pishag'ar	29	Molguzar tizmasi
7	Uxumsoy	25	Nurota tizmasi
8	Morjunsoy	24	Nurota tizmasi
9	Osmonsoy	21	Nurota tizmasi

Jizzax viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan suv resurslarini muhofaza qilish chora tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, reja asosida juda ko'plab ishlar bajarilmoqda. Jumladan: 2014-2016 yillarda Jizzax viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi xodimlari tomonidan oqova suvlarini tozalash inshootlari (OSTI), ochiq suv havzalari, yer osti sizot suvlaridan jami rejadagi 19 ta ob'yektdan 240 ta namuna olingan va 4224 ta kimyoviy tahlil bajarilgan. Shundan nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika Kengashi bilan kelishilgan rejaga asosan 5 ta korxonadan 44 ta namuna olinib, 660 ta kimyoviy tahlil, ifloslantiruvchi manbalar monitoringini yaratish dasturi buyicha va dasturdan tashqari ochiq suv havzalaridan 192 ta namuna, 3492 ta kimyoviy tahlil bajarilgan.

Shu davrda 5 ta oqova suvlarini tozalash inshooti suv tozalash samaradorligi nazorat qilingan. Uch-Quloq koni, Marjonbuloq koni tasarrufidagi "Lalmikor" qo'rg'oni oqova suv tozalash inshootlaridan filtrlash maydonlariga, Jizzax stansiya aeratsiyasidan Urkulsoy zovuriga (zovur boshlangan joyda), "Zomin" sanatoriysi oqova suv tozalash inshootlari o'rganilib chiqilgan.

Oqova suvlarini tozalash inshootlari samaradorligi talab etilgan 6 ta ingridiyent bo'yicha nazorat qilingan. Bulardan Jizzax stansiyasi ish faoliyati may oyiga kelib umuman to'xtaganligi sababi Jizzax stansiya aeratsiyasi 30 yil davomida 2 marotaba ta'mirlanganligi, hamda inshootlar jismonan eskirganligi tufayli samaradorlik tushib ketgan, yon devorlari yorilib oqova suvlar sizib chiqqan boshlagan.

Bundan tashqari tozalash inshootiga oqova suvlarni ko'tarib beruvchi suv nasoslaridan bittasi ish holatida, ikkinchi va rezerv nasoslar ishdan chiqqan, inshoot aerotenkiga havo uzatuvchi kompressor uskunalari ishlamaydi, havo uzatuvchi quvurlar esa chirib, ish faoliyatiga yaroqsiz bo'lib qolgan. Jizzax stansiya aeratsiyasi bugungi kundagi ekologik holati o'rganib chiqilib, yaxshilash borasida qo'mita tomonidan tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Viloyatda yer osti suvlaridan foydalanish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2004 yil 12 yanvardagi 14-sonli qarori bilan Jizzax viloyatidagi «Tog' oldi» va «Sangzor» chuchuk yer osti suvlari hosil bo'lish joylariga alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud maqomi berilgan edi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat hokimining 2004 yil 19 yanvarda 14-sonli qarori qabul qilinib, viloyat Hidrogeologiya stansiyasi xodimlari bilan birgalikda ushbu hududlarda ekologik potensial havfli ob'yektlarni ro'yxatga olish ishlari olib borilgan. Ushbu jarayonda «Tog' oldi» chuchuk yer osti suvlari hosil bo'lish joylarida potensial jihatdan ekologik havfli ob'yektlar mavjud emasligi aniqlangan. «Sangzor» chuchuk yer osti suvlari hosil bo'lish joylarida esa 16 ta ekologik potensial havfli ob'yektlar aniqlangan. Aniqlangan ekologik potensial ob'yektlar o'ta havfli bo'lmaganligi uchun muhofaza etiladigan tabiiy hududdan butunlay ko'chirish tavsiya etilmagan.

Chuchuk yer osti suvlari hosil bo'ladigan hududlarda («Tog' oldi» va «Sangzor») ja'mi 39 ta kuzatuv quduqlari orqali Jizzax GGS bilan hamkorlikda yer osti suvlarining statik sathini o'zgarishi va kimyoviy tarkibi tahlil qilinib borilmoqda. Olib borilgan tahlillarga ko'ra Tog' oldi va Sangzor chuchuk suv hosil bo'ladigan hududda yer osti suv sathining pasayishi va kimyoviy tarkibida salbiy o'zgarishlar kuzatilmagan.

Bugungi kun holatiga «Tog' oldi» chuchuk suv hosil bo'ladigan hududda 193 ta quduq mavjud bo'lib, 71 tasi ishlab turibdi, 59 tasi zahirada, 63 tasi nasoslari kuyganligi uchun vaqtinchalik ishlamayapti. Ishlayotgan quduqlar orqali bir kunda 42,7 ming kub metr suv olinib ishlatilmoqda. Suv olish miqdori tasdiqlangan zahiradan oshmagan.

«Sangzor» chuchuk suv hosil bo'ladigan hududda 640 ta quduq mavjud bo'lib, 281 tasi ishlaydi, 99 tasi zahirada, 260 tasi nasoslari kuyganligi uchun vaqtinchalik ishlamayapti. Ishlayotgan quduqlar orqali bir kunda 134,4 ming kub metr suv olinib ishlatilmoqda (tasdiqlangan zaxira 920,8 ming metr kub/k-k). Suv olish miqdori tasdiqlangan zahiradan oshmagan. Suv resurslarini muhofaza qilish bo'yicha 2014 va 2016 yillarda olib borilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Jizzax viloyatida 2015 yil «Manzilli dastur»ga kiritilgan kommunal ob'yektlar bo'yicha, ya'ni aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida

viloyatning barcha tumanlarida ya'ni 51 ta mavzalarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun 92 km suv quvuri tortilgan, 19 ta yer osti qudug'i foydalanish uchun topshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 19 martdagi "O'zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish va suv iste'moli tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 82-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 14 iyundagi "Suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 171-sonli qarorlari va O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasining 2013 yil 20 iyundagi 107-sonli hamda 2013 yil 8 iyuldagi 120-sonli buyruqlari ijrosini ta'minlash maqsadida Jizzax viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan 2013 yil 1- iyuldagi 103-sonli hamda 2013 yil 9 iyuldagi 106-sonli buyruqlar ishlab chiqilgan.

Jizzax viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan yuqoridagi Qaror va buyruqlar ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat inspeksiyalari, Jizzax shahri va barcha tabiatni muhofaza qilish bo'limlari inspektorlari tomonidan inventarizatsiyadan o'tkazilgan. Viloyat bo'yicha qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish uchun asosan ochiq suv havzalaridan foydalaniladi. Viloyatimiz ochiq suv havzalari zahiralari kam bo'lganligi uchun sug'orishga ishlatiladigan suvning asosiy qismi Sirdaryo va Zarafshon daryosidan olinadi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, viloyatdagi suv resurslaridan oqilona foydalanish va geografik tadqiqotlar natijasida ushbu imkoniyatlarning aniq chegaralarini belgilab, ulardan tabiiy sharoit va boshqa omillarni hisobga olgan holda oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish choralarini aniqlab olish masalasi kuchayib bormoqda. Binobarin, bugungi kunimizga xos bo'lgan modernizatsiya va texnologiyalar viloyatning suv va suv resurslariga bo'lgan ehtiyojini yanada to'la ta'minlash hamda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, xo'jalik tarmog'idagi barcha sohalarni to'g'ri tashkillashtirish dolzarb masalalaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti - to'kin hayot manbai. T. O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy yuksalish yo'lida". T: "O'zbekiston", 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuni. (06.06.1993й.)
4. O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi to'g'risida"gi qonuni. (30.04.1998).

**Хазраткулов Х.Х., Умирзоқова Г.Б., Тожибоева Ю.**  
**Жиззах давлат педагогика институту**

### **АЙДАР-АРНАСОЙ КЎЛЛАР ТИЗИМИ ОРНИТОФАУНАСИНИ ТАДҚИҚ КИЛИШДА МОНИТОРИНГ ТИЗИМИНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ**

**Таянч иборалар:** *Айдар-Арнасой кўллар тизими, орнитофауна, мониторинг, учиб кетувчи қушлар, кўчувчи қушлар, қишловчи қушлар, Рамсар конвенцияси.*

**Кириш.** Арид ҳудудда жойлашган Ўрта Осиё табиий ўлкаси учун бош муаммо сув эканлигини, кунлик ҳаётимиз ёки матбуотимиз орқали чоп этилаётган мақолалар ҳам кўрсатиб турибди. Сув манбаларидан оқилona фойдаланмаслик оқибатида, табиий равишда пайдо бўлган сув ҳавзаларининг қуриб (Орол денгизи мисолида) бораётганлигини ва уларнинг қуриши ҳисобига ташлама кўлларнинг (Айдар-Арнасой, Сарикамиш, Денгизкўл) акваторияси кенгайиб, ўзига хос бўлган экотизимларни вужудга келтирмоқда.

Экотизимларнинг ривожланишида сув асосий ўринни эгалласа, экотизимларнинг ўзаро алоқасида қушларнинг ўрни алоҳида аҳамиятга эга. Фасллар алмашилиши билан яшаш жойини (муҳитини) ўзгартириб турадиган қушлар, Орол денгизи майдони кичрайиб кетганлиги ва унда организмлар умуман яшамаётганлиги туфайли ҳам Айдар-Арнасой, Сарикамиш ва Денгизкўл каби ташлама кўлларга кўниб ўтмоқда.

53. Zaynutdinova D.K., Haydarova S.A., O'rozaliyeva A., Sariyeva N. Hududiy nozogeografik vaziyat va uni o'rganish .....	119
54. Usmonov Yu.Q., Ismatov M.X. Tabiiy resurslardan rekreatsiya maqsadida foydalanishning muammolari va yechimlari .....	121
55. Qayumova M.M., Amanova S.A., Azizov O., Abdug'aniyeva G. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanish istiqbollari .....	123
56. Juraxujayev D.D., Ramanova G.R., Umurzoqova U.Q. Muqobil energiya-iqtisodiy barqarorlik omili .....	125
57. Hurланов А.С., Садуллаев Б.Ш. Қорақалпоғистон республикаси иктисодиётида таркибий ўзгаришларнинг истиқболли йўналишлари .....	128
58. Файзуллаев М.А. Жанубий Ўзбекистон чўл ҳудудлари кишлок хўжалиги иختисослашувинингасосий муаммолари .....	129
59. Kayumova M., Jumanova F., Abduraxmonova N., Sharipov R. "Loyqa" dagi dehqonchilik va "Qayir" polizlari .....	131
60. Баймурадова С.Э., Мирзаева А.З. Бобораҳимова Г.Т. Таниқли иктисодий географлар.....	133
61. Султонов Ш.А., Навотова Д.И. Ўзбекистон нефт-газ саноати ривожланишининг географик хусусиятлари .....	138
62. Жумаева Х.Х. Ўзбекистон молия-банк тизимини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари.....	140

### III ШУЪБА ҚУРУҚЛИК ГИДРОЛОГИЯСИ, ТОПОГРАФИЯ, КАРТОГРАФИЯ ВА КАДАСТР

63. Хикматов Ф.Х., Юнусов Ф.Х., Аденбаев Б.Е., Каримов Н.П. Тоғ дарёлари оқимини метеорологик маълумотлар асосида микдорий баҳолаш масалалари....	141
64. Аббасов С.Б. Жиззах вилояти сув ресурсларидан самарали фойдаланиш .....	144
65. Низомов А., Нугманова А., Матназаров А. Абу райхон берунийнинг гидрологик мероси .....	146
66. Халимова Г.С., Мухаммадиева З.М. Қулжуктов тизмаси ер ости сувлари ва улардан самарали фойдаланиш .....	148
67. Довулов Н.Л. Дарёлар оқимининг атмосфера ёғинлари билан боғлиқлигини статистик баҳолаш .....	150
68. Зияев Р.Р., Эрлапасов Н.Б. Зарафшон дарёси тўлинув даври оқимининг характерли йиллардаги ўзгаришлари .....	152
69. Қодиров Ф.Ў., Бердибеков П.К. Ўзбекистонда сув ресурслардан оқилон фойдаланиш муаммолари .....	154
70. Юнусов Р., Салимова Х.Х. "Гидрогель" – сув тежамкор ва арзон, табиий-махаллий ресурсдан оқилон фойдаланиш .....	158
71. Раҳмонов К.Р., Хўжамова И.М. Охангарон хавзаси дарёлари сув ва муаллақ оқизиклари оқимининг ўрганилганлиги ҳақида .....	160
72. Soatov B.B. Umirov N.H., Odilov D.B. Baliqchilikni rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora tadbirlari .....	163
73. Xolmirzayev J.E., Nasrullayeva Ch.I., Isoqova N., Aralova Yu.H. Jizzax viloyatining ichki suvglari va ularga antropogen omillarning ta'siri .....	165
74. Usmonov M.R., Ubaydullayev D.K., Qurbonov I.A. Jizzax viloyatida suv resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning oziga xos xususiyatlari ....	167
75. Ҳазратқулов Х.Х., Умирзоқова Г.Б., Тожибоева Ю. Айдар-Арнасой қўллар тизими орнитофаунасини тадқиқ қилишда мониторинг тизимининг долзарблиги .....	169